

VII. ISTE'MOL BOZORI



2023 yilning yanvar-iyunida chakana savdo tovar aylanmasi 3 652,0 mlrd. soʻmni yoki 2022 yilning shu davriga nisbatan 104,7 foizni tashkil qildi.


Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi 262,4 mlrd. soʻmni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 7,2 foizni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning chakana savdo tovar aylanmasi 113,9 foizni tashkil etib, 717,9 mlrd. soʻmga yetdi, umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 19,7 foizni tashkil qildi.

Umumiy tovar aylanmasi hajmida 2 671,7 mlrd. soʻm savdo faoliyati bilan shugʻullanadigan jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar hisobiga toʻgʻri keldi va oʻsish surʻati 2022 yilning shu davriga nisbatan 100,3 foizga yetdi. Jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmida ushbu sektor ulushi 73,1 foizga teng boʻldi.



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, % da (2023 yil yanvar-iyun)



2023 yilning yanvar-iyunida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi davlat va nodavlat shakllari boʻyicha quyidagicha ifodalanadi.

Nodavlat mulki 3 652,0 mlrd. soʻmni yoki oʻtgan 2022 yilning shu davriga nisbatan 104,7 foizni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 100,0 foizni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmining eng katta ulushi Jizzax shahri hisobiga toʻgʻri keldi va 24,0 foizni tashkil etdi, Sharof Rashidov tumani 11,9 foizni, Zomin tumani 11,7 foizni tashkil etgan boʻlsa, Yangiobod tumani 1,4 foiz, Arnasoy tumani 2,1 foiz va Zafarobod tumani 2,3 foiz ulush bilan eng past koʻrsatkichni qayd etdi.



**Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar,
kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining
hajmi va o'sish sur'atlari % da
(2023 yil yanvar-iyun)**


Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-iyun oyida chakana savdo tovar aylanmasi 3 652,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,7 foizni tashkil etdi

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 262,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 135,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 3 389,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 102,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 996,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 101,9 %) tashkil etdi.

	<i>Jami mlrd. so'm</i>	<i>2022 yil yanvar- iyun oyiga nisbatan, foizda</i>	<i>Yirik korxonalar mlrd. so'm</i>	<i>2022 yil yanvar- iyun oyiga nisbatan, foizda</i>	<i>Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm</i>	<i>2022 yil yanvar- iyun oyiga nisbatan, foizda</i>
Jizzax viloyati	3 652,0	104,7	262,4	135,9	3 389,6	102,9
<i>shahar:</i>						
Jizzax	867,4	105,0	100,8	99,4	766,6	105,7
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	78,3	72,9	0,9	75,0	77,4	72,8
Baxmal	379,8	107,8	1,8	92,4	378,0	107,9
G'allaorol	366,1	104,9	12,8	100,3	353,3	105,1
Sharof Rashidov	435,1	101,8	4,1	178,5	431,0	101,4
Do'stlik	162,5	104,9	1,1	23,5	161,4	107,3
Zomin	427,4	103,9	71,1	120,7	356,3	101,1
Zarbdor	200,6	104,5	1,0	85,3	199,6	104,6
Zafarobod	83,1	101,5	0,8	71,6	82,3	101,9
Mirzacho'l	133,0	103,1	0,7	80,6	132,3	103,3
Paxtakor	275,0	122,6	65,7	13,5 m.	209,3	95,4
Forish	191,4	105,3	1,1	89,0	190,3	105,5
Yangiobod	52,3	104,4	0,5	77,2	51,8	105,0



Hududlarning jami chakana tovar aylanmasidagi ulushi



2023 yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi

	<i>Chakana savdo hajmi, mlrd. so'm</i>	<i>2022 yil yanvar-iyuniga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>Umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida</i>
Jami	3 652,0	104,7	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
yirik korxonalar	262,4	135,9	7,2
kichik tadbirkorlik	717,9	113,9	19,7
Yakka tartibdagi tadbirkorlik	1 675,3	99,3	45,9
Uyushmagan savdo	996,4	101,9	27,2




2023 yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning
chakana tovar aylanmasi

	Jami		Aholi jon boshiga	
	Hajmi, mlrd. so'm	2022 yil yanvar- iyuniga nisbatan foiz hisobida	ming so'm	2022 yil yanvar- iyuniga nisbatan foiz hisobida
Jizzax viloyati	3 652,0	104,7	2 462,1	102,4
<i>shahar:</i>				
Jizzax	867,4	105,0	4 491,6	102,2
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	78,3	72,9	1 625,1	71,8
Baxmal	379,8	107,8	2 267,7	105,5
G'allaorol	366,1	104,9	1 991,8	102,7
Sharof Rashidov	435,1	101,8	1 826,7	99,2
Do'stlik	162,5	104,9	2 351,9	103,1
Zomin	427,4	103,9	2 425,6	101,5
Zarbdor	200,6	104,5	2 154,5	102,0
Zafarobod	83,1	101,5	1 571,8	99,4
Mirzacho'l	133,0	103,1	2 431,0	101,2
Paxtakor	275,0	122,6	3 450,6	119,8
Forish	191,4	105,3	1 966,7	103,6
Yangiobod	52,3	104,4	1 771,6	103,0

Viloyatda chakana tovar aylanmasida aholi jon boshiga o'sish surati yuqori hududlar Paxtakor (119,8 %), Baxmal (105,5 %) va Forish(103,6 %) tumanlariga to'g'ri keladi.



2023 yil yanvar-iyun oylarida, chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari
(ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, % da)




Viloyati bo'yicha 2023-yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 3 652,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 104,7 foizni tashkil etdi.

Viloyatning chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida 2,9 foizga o'sish kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga va 35,9 foizga o'sish yirik korxonalar hissasiga to'g'ri keldi.



Viloyatda chakana savdo tovar aylanmasi 2,7 foiz ulush bilan 3 652,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatning aksariyat hududlarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari kuzatildi. Xususan, yuqori o'sish sur'atlari Paxtakor (122,6 %), Baxmal (107,8 %), Forish (105,3 %), Jizzax shahar (105,0 %), G'allaorol tumanlarida (104,9 %), nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Zafarobod (101,5 %) va Arnasoy tumanlarida (72,9 %) kuzatildi.






2023 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati, % da


Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 35,9 foizga o'sdi va 262,4 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 7,2 foiz ulushiga to'g'ri keldi.

Yirik korxonalar




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Eng past ulushga ega hududlar, % da

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 3 389,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 2,9 foizga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 92,8 foizni tashkil etdi.

Yirik korxonalar




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik






Tumanlarning umumiy ovqatlanish korxonalari tovar aylanmasi mlrd. so‘m, o‘shish sur‘ati, % da (2023 yil yanvar-iyun)



Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi umumiy hajmida yuqori ko‘rsatkich Jizzax shahrida (56,8 mlrd. so‘m), Sharof Rashidov (33,4 mlrd. so‘m), G‘allaorol (10,4 mlrd. so‘m) hamda Zomin (10,2 mlrd. so‘m) tumanlarida, eng past ko‘rsatkich esa Yangiobod (1,3 mlrd. so‘m), Zafarobod (1,1 mlrd. so‘m) va Arnasoy (0,6 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

	Hajmi, mlrd. so‘m	Jamiga nisbatan foizda	2022 yil yanvar-iyuniga nisbatan foiz hisobida
Jizzax viloyati	144,1	100,0	105,0
<i>shahar:</i>			
Jizzax	56,7	39,3	104,0
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	0,6	0,4	109,0
Baxmal	8,8	6,1	109,0
G‘allaorol	10,4	7,2	109,0
Sharof Rashidov	33,4	23,2	105,0
Do‘stlik	3,0	2,1	94,0
Zomin	10,2	7,1	110,0
Zarbdor	5,3	3,7	113,0
Zafarobod	1,1	0,8	96,0
Mirzacho‘l	1,3	0,9	88,0
Paxtakor	4,5	3,1	93,0
Forish	7,5	5,2	103,0
Yangiobod	1,3	0,9	96,0

Eng yuqori hajmga ega hududlar



Jizzax shahri
Sharof Rashidov
G‘allaorol



2023 yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida
ulgurji tovar aylanmasi

2023 yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo aylanmasi 1 520,9 mlrd. soʻmni yoki 2022 yilning shu davriga nisbatan 101,0 foizni tashkil etdi.

Yirik korxonalarining ulgurji savdo aylanmasi 138,3 mlrd. soʻmni yoki oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 54,7 foizni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo aylanmasi 110,3 foizni tashkil etib, 1382,6 mlrd. soʻmga yetdi hamda umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi 90,9 foizni tashkil qildi.

	<i>Hajmi, (mlrd. soʻm)</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>	<i>2022 yil yanvar-iyuniga nisbatan foizda</i>
Jizzax viloyati	1 520,9	100,0	101,0
<i>shahar:</i>			
Jizzax	882,9	58,1	113,7
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	3,9	0,3	83,7
Baxmal	71,9	4,7	72,6
Gʻallaorol	38,3	2,5	173,5
Sharof Rashidov	142,1	9,3	97,9
Doʻstlik	46,8	3,1	52,0
Zomin	221,5	14,6	107,4
Zarbdor	55,7	3,7	100,4
Zafarobod	11,1	0,7	106,1
Mirzachoʻl	30,7	2,0	103,5
Paxtakor	4,2	0,3	8,3
Forish	8,3	0,5	77,9
Yangiobod	3,5	0,2	65,5

Hududlar kesimida ulgurji tovar aylanmasi oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surati yuqori boʻlgan Gʻallaorol (173,5 %), Jizzax shahar (113,7 %) va Zomin (107,4 %) tumanlariga toʻgʻi keladi.



2023 yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida yirik korxonalar va kichikning ulgurji savdo aylanmasi


2023-yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 520,9 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 101,0 foizni tashkil etdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 1 38,3 mlrd. soʻmni (oʻsish surʼati 54,7 %), kichik biznes va mikrofirmalarining tovar aylanmasi 1 382,6 mlrd. soʻmni (oʻsish surʼati 110,3 %) tashkil etdi.

	<i>Jami mlrd. soʻm</i>	<i>2022 yil yanvar-iyun oyiga nisbatan, foizda</i>	<i>Yirik korxonalar mlrd. soʻm</i>	<i>2022 yil yanvar-iyun oyiga nisbatan, foizda</i>	<i>Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. soʻm</i>	<i>2022 yil yanvar-iyun oyiga nisbatan, foizda</i>
Jizzax viloyati	1 520,9	101,0	138,3	54,7	1 382,6	110,3
<i>shahar:</i>						
Jizzax	882,9	113,7	46,7	60,2	836,2	119,7
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	3,9	83,7	-	117,1	3,9	83,5
Baxmal	71,9	72,6	64,7	86,0	7,2	30,3
Gʻallaorol	38,3	173,5	17,0	12 083,1	21,3	97,1
Sharof Rashidov	142,1	97,9	0,1	42,5	142,0	98,0
Doʻstlik	46,8	52,0	9,2	17,0	37,6	105,2
Zomin	221,5	107,4	-	72,3	221,5	107,4
Zarbdor	55,7	100,4	-	85,1	55,7	100,4
Zafarobod	11,1	106,1	0,1	531,0	11,0	105,7
Mirzachoʻl	30,7	103,5	0,1	121,7	30,6	103,4
Paxtakor	4,2	8,3	0,2	0,4	4,0	72,1
Forish	8,3	77,9	0,2	66,3	8,1	78,2
Yangiobod	3,5	65,5	-	214,3	3,5	65,0



Ulgurji savdo tovar aylanmasida hududlar ulushi, % da



Ulgurji savdo aylanmasi hajmi o'tgan yilga nisbatan 101,0 foizni tashkil etdi, kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 110,3 foizni, hajmi esa 1 382,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Xususan, ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan hudud Jizzax shahri (58,1 %) hisoblanadi. Shuningdek, Zomin (14,6 %) va Sharof Rashidov (9,3 %) tumanlari nisbatan yuqori ulushga, Yangiobod (0,2 %), Arnasoy (0,3 %), Paxtakor (0,3 %) hamda Forish (0,5 %) tumanlari esa eng past ulushga ega.

Shundan yuqori hajmlarga ega bo'lgan Jizzax shahrida 882,6 mlrd. so'mni, qolganlari Zomin 221,5 mlrd. so'mni, Sharof Rashidov 142,1 mlrd. so'mni, Baxmal 71,9 mlrd. so'mni hamda Zarbdor 55,7 mlrd. so'mni tumanlarida tashkil qilgan.